Tursinboyeva Nozima Sheripboy qizi (Urganch RANCH Texnologiya universitesti 1-bosqich magistranti; talabasi; nozimatursunboeva03@gmail.com),
Ro‘zmetov Hamid Qalandarovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

INGLIZ VA O‘ZBEK ROMANTIK POETIKASIDA TABIAT VA MUHABBAT KONSEPTINING G‘OYAVIY-ESTETIK VAZIFASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek romantik poetikasida tabiat va muhabbat konseptlarining g‘oyaviy-estetik vazifalari qiyosiy-tipologik yondashuv asosida tadqiq etiladi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz romantizmining yirik vakili Jorj Gordon Bayron hamda o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyandasi Nodirabegim (Mohlaroyim) she’riyati tanlab olinadi. Maqolada har ikki ijodkor lirikasida tabiat konsepti alohida, muhabbat konsepti alohida tahlil qilinib, ularning obrazlar tizimi, semantik qatlamlari va estetik funksiyalari aniqlanadi. Bayron poeziyasida tabiatning individualizm, ruhiy iztirob va erkinlik g‘oyalari bilan bog‘liq holda talqin etilishi Nodirabegim she’riyatidagi tabiatning ilohiy go‘zallik, ma’naviy poklik va inson qalbi bilan uyg‘unlikda ifodalanishi bilan qiyoslanadi. Shuningdek, muhabbat konsepti Bayron asarlarida fojiaviylik, ichki ziddiyat va isyonkor ruh bilan, Nodirabegim lirikasida esa sadoqat, ilohiy ishq va ma’naviy kamolot mezonlari bilan namoyon bo‘lishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek romantik poetikasida tabiat va muhabbat konseptlarining milliy-madaniy xususiyatlarini hamda ularning badiiy tafakkurdagi umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *romantizm, poetika, tabiat konsepti, muhabbat konsepti, ma’naviy poklik, inson qalbi, qiyosiy tahlil, g‘oyaviy-estetik vazifa.*

ИДЕЙНО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ КОНЦЕПТОВ ПРИРОДЫ И ЛЮБВИ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ РОМАНТИЧЕСКОЙ ПОЭТИКЕ

Аннотация. *В данной статье исследуются идейно-эстетические функции концептов природы и любви в английской и узбекской романтической поэтике на основе сравнительно-типологического подхода. В качестве основного материала анализа выбраны поэтические произведения Джорджа Гордона Байрона, крупнейшего представителя английского романтизма, и Нодирабегим (Мохларойим), яркой представительницы узбекской классической литературы. В статье концепт природы и концепт любви рассматриваются раздельно, выявляются их образные системы, семантические уровни и эстетические функции. Осмысление природы в поэзии Байрона, связанное с идеями индивидуализма, духовного страдания и свободы, сопоставляется с изображением природы в поэзии Нодирабегим, где она выступает как символ божественной красоты, духовной чистоты и гармонии с человеческой душой. Кроме того, концепт любви в произведениях Байрона проявляется через трагизм, внутренние противоречия и бунтарский дух, тогда как в лирике Нодирабегим он выражается через верность, божественную любовь и идеалы духовного совершенства. Результаты исследования способствуют выявлению национально-культурных особенностей концептов природы и любви в английской и узбекской романтической поэтике, а также их общих и отличительных черт в художественном мышлении.*

Ключевые слова: *романтизм, поэтика, концепт природы, концепт любви, духовная чистота, человеческое сердце, сравнительный анализ, идейно-эстетическая функция.*

THE IDEAL-AESTHETIC FUNCTION OF THE CONCEPT OF NATURE AND LOVE IN ENGLISH AND UZBEK ROMANTIC POETICS

Annotation. *This article investigates the ideological and aesthetic functions of the concepts of nature and love in English and Uzbek Romantic poetics through a comparative–typological approach. The poetry of George Gordon Byron, a major representative of English Romanticism, and Nodirabegim (Mohlaroyim), a prominent figure of Uzbek classical literature, is selected as the primary material for analysis. In the article, the concept of nature and the concept of love are examined separately, and their systems of imagery, semantic layers, and aesthetic functions are identified. The interpretation of nature in Byron’s poetry, where it is associated with ideas of individualism, spiritual anguish, and freedom, is compared with the representation of nature in Nodirabegim’s poetry, where it reflects divine beauty, spiritual purity, and harmony with the human soul. Likewise, the concept of love is shown to manifest itself through tragedy, inner conflict, and a rebellious spirit in Byron’s works, whereas in Nodirabegim’s lyrics it is expressed through devotion, divine love, and ideals of spiritual perfection. The results of the study contribute to identifying the national and cultural characteristics of the concepts of nature and love in English and Uzbek Romantic poetics, as well as their common and distinctive features within artistic thinking.*

Keywords: *romanticism, poetics, concept of nature, concept of love, spiritual purity, the human heart, comparative analysis, ideological and aesthetic function.*

Kirish. XIX asr boshlarida Yevropa adabiyotida yuzaga kelgan romantizm oqimi inson shaxsiyati, ichki kechinmalari, erkinlikka intilishi va tabiat bilan ruhiy uyg‘unlik g‘oyalarini markazga olib chiqdi. Romantiklar uchun tabiat tashqi manzara emas, balki inson qalbining aks sadosi, uning iztirobi, orzulari va isyonkor ruhini ifodalovchi muhim estetik makon sifatida talqin etildi. Shu jihatdan, tabiat obrazlari romantik adabiyotda falsafiy, ramziy va emotsional mazmun kasb etib, shoirning dunyoqarashi va ichki ruhiy holatini ochib beruvchi asosiy badiiy vositalardan biriga aylandi. Muhabbat esa ushbu g‘oyalarning eng muhim badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ldi. Shu jihatdan, romantik she’riyatda muhabbat nafaqat ikki shaxs o‘rtasidagi tuyg‘u, balki insonning jamiyatga, taqdirga va o‘z ichki “men”iga munosabatini ifodalovchi falsafiy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Romantik adabiyotda tabiat va muhabbat oddiy mavzu yoki tasvir obyekti bo‘lib qolmay, balki inson ruhiy olamining ramziy ifodasi, ichki kechinmalarining badiiy proyeksiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois romantik poetikada bu ikki konsept alohida g‘oyaviy-estetik yuklama kasb etadi.[1]

“Konsept” lotincha “conceptus” so‘zidan olingan bo‘lib, “tushuncha” ma’nosini bildiradi. Adabiyotshunoslikda “konsept” tushunchasi 20-asrning ikkinchi yarmida, asosan g‘arb ilmiy maktablarida , shuningdek, semiotika, kognitiv adabiyotshunoslik va nazariy poezik tahlil kontekstida rivojlangan. G‘arb adabiyotshunosligida konsept adabiy matnning semantik yadrosi sifatida ko‘riladi, u obrazlar, mavzular va g‘oyaviy-psixologik qatlamlarni tizimli tarzda birlashtiradi. Sharq adabiy an’analarda esa konsept tushunchasi ko‘pincha obraz va g‘oyaviy motivlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek mumtoz she’riyatida muhabbat, tabiat, ma’naviy kamolot kabi mavzular an’anaviy konsept sifatida shakllangan bo‘lib, ular she’riyatning badiiy strukturasi va falsafiy mazmunini belgilaydi. Shunday qilib, “konsept” atamasi Sharq va G‘arb adabiy an’analari uchun umumiy vosita bo‘lib, ular orqali muallifning g‘oyaviy-estetik nuqtayi nazari, badiiy ifoda va mavzu-mazmun tizimi tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek romantik poetikasini qiyosiy o‘rganishda aynan konseptual yondashuv tabiat va muhabbat kabi markaziy kategoriyalarning semantik va estetik vazifalarini aniqlash imkonini beradi.[2]

Ingliz romantizmi vakili Jorj Gordon Bayron va o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyandasi Nodirabegim (Mohlaroyim) ijodida tabiat va muhabbat konseptlari markaziy poetik kategoriya sifatida shakllanadi. Bayron she’riyatida tabiat ko‘pincha yolg‘izlik, isyon, ruhiy iztirob va erkinlikka intilish ramzi sifatida talqin qilinsa, Nodirabegim lirikasida tabiat inson qalbi bilan uyg‘unlashgan, ilohiy go‘zallik va ma’naviy poklikni ifodalovchi badiiy makon sifatida gavdalanadi. Xuddi shuningdek, muhabbat konsepti ham har ikki shoir poetikasida turlicha g‘oyaviy-estetik mazmun kasb etib, Bayron lirikasida fojiaviylik va ichki ziddiyatlar bilan, Nodirabegim ijodida esa sadoqat, ilohiy ishq va ma’naviy kamolot bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Mazkur jihatlar Bayron va Nodirabegim ijodini qiyosiy o‘rganish orqali ingliz va o‘zbek romantik tafakkurining milliy-madaniy xususiyatlarini, shuningdek, umumromantik estetik tamoyillarini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli ushbu maqolada Bayron va Nodirabegim she’riyati misolida tabiat va muhabbat konseptlarining g‘oyaviy-estetik vazifasini qiyosiy tahlil qilish dolzarb ilmiy muammo sifatida tanlanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi romantik poetikada tabiat va muhabbat konseptlarining badiiy-falsafiy mazmunini ochish hamda ularning turli adabiy an’analardagi ifoda shakllarini aniqlashdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Bayron va Nodirabegim ijodini ilmiy jihatdan o‘rganish turli davrlarda, turli adabiy maktablar doirasida amalga oshirilgan. Bayron ijodini tadqiq etish XIX asrning o‘zidayoq ingliz va Yevropa adabiyotshunosligida boshlangan. Nodirabegim ijodi esa o‘zbek adabiyotshunosligida, asosan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli o‘rganila boshlandi. Bayron ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda uning lirik qahramoni va muhabbat obraziga alohida e’tibor qaratilgan. Masalan, J.McGann Bayron poeziyasida sevgi ko‘pincha ijtimoiy norozilik va shaxsiy fojia bilan uyg‘unlashishini ta’kidlaydi.[3] Bundan tashqari, Bernard Beatty, Clara Tuite hamda rus adabiyotshunoslaridan Vinogradov va Jirmunskiy kabilar ham o‘z ilmiy tadqiqotlari, asarlari va maqolalarida Bayron ijodiga yuzlangan va uning hayot yo‘li va ijodiga oid bir qancha izlanishlar olib borishgan.

Nodirabegim ijodini tarixiy-adabiy muhit bilan bog‘liq holda o‘rganishda D.Rahmonovning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Olim o‘zining “Qo‘qon adabiy muhiti” va boshqa tadqiqotlarida Nodirabegim ijodini XIX asr Qo‘qon adabiy maktabi doirasida tahlil qiladi.[4] Nodirabegim ijodini ayol shoiralar tarixiy tizimida o‘rganishda To‘xtasin Jalolov va Mahbuba Qodirova izlanishlari alohida e’tiborga loyiq. To‘xtasin Jalolov Nodirabegimni o‘zbek shoiralari an’anasining markaziy namoyandasi sifatida baholab, uning lirika-

[1] Ulug‘bek Hamdamov, Abdug‘opir Qosimov. Jahon adabiyoti. Toshkent, “Akademnashr NMM”, 2024.
[2] Yorqinoy Hamroyeva. O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2007.
[3] Jerome McGann. Byron and the poetics of Adversity. Cambridge University Press, 2022.
[4] Rahmonov D. Qo‘qon adabiy muhiti va ayol shoiralar ijodi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2015.

sidagi mavzu, janr va badiiy ifoda vositalarini umumiy mumtoz adabiyot fonida tahlil qiladi.[1] Mahbuba Qodirova esa Nodirabegim ijodini XIX asr ayol adabiyoti doirasida sistematik o'rganib, shoira she'riyatidagi shaxsiy kechinma, ijtimoiy mas'uliyat va falsafiy qarashlarni bir butun estetik tizim sifatida talqin qiladi.[2]

Biroq mavjud tadqiqotlarda Bayron va Nodirabegim ijodini qiyosiy-konseptual nuqtai nazardan o'rganish deyarli uchramaydi. Aksariyat ishlar ularni alohida adabiy an'analar doirasida tahlil qiladi. Ayniqsa, tabiat va muhabbatni konseptual poetika asosida, Sharq va G'arb romantizmini birlashtiruvchi estetik mexanizm sifatida o'rganish yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, Bayron va Nodirabegim she'riyatida tabiat va muhabbat konseptlarining g'oyaviy-estetik vazifasini qiyosiy asosda tahlil qilishni maqsad qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot Bayron va Nodirabegim she'riyatida tabiat va muhabbat konseptlarining g'oyaviy-estetik vazifasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, u kompleks adabiyotshunoslik metodlari asosida olib borildi. Tadqiqotda Sharq va G'arb romantik poetikasini qiyosiy o'rganish imkonini beruvchi nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Avvalo, qiyosiy-tipologik metod qo'llanildi. Ushbu metod orqali Bayron va Nodirabegim ijodidagi tabiat va muhabbat obrazlarining umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, ularning romantik dunyoqarashni shakllantirishdagi roli tahlil qilindi. Qiyosiy yondashuv ikki adabiy an'ana – ingliz romantizmi va o'zbek mumtoz-romantik lirikasining estetik tamoyillarini bir xil mezonlar asosida baholash imkonini berdi. Tadqiqotda, shuningdek, konseptual-tahliliy metoddan foydalanildi. "Tabiat" va "muhabbat" tushunchalari alohida poetik motivlar sifatida emas, balki muayyan madaniy-falsafiy mazmunni ifodalovchi konseptlar sifatida o'rganildi. Bu yondashuv orqali mazkur tushunchalarning Bayron va Nodirabegim poetikasida qanday semantik yuklama olgani va qanday g'oyaviy vazifani bajargani aniqlashtirildi. Matnshunoslik va poetik tahlil metodlari asosida shoirlarning muayyan she'rlari tanlab olinib, ulardagi obrazlar tizimi, metafora, ramz, ritm va badiiy ifoda vositalari o'rganildi. Ayniqsa, tabiat tasviri va muhabbat motivlarining lirik subyekt ruhiy holati bilan bog'liqligi tahlil markaziga qo'yildi. Bundan tashqari, germenevtik yondashuv qo'llanilib, she'riy matnlarning yashirin ma'nolari, ramziy qatlamlari va madaniy kontekst bilan aloqasi talqin qilindi. Bu metod Bayron she'riyatidagi isyonkor romantik ruh va Nodirabegim lirikasidagi ilohiy-ishqiy falsafani chuqurroq ochib berishga xizmat qildi. Tadqiqotda tarixiy-adabiy metod ham muhim o'rin tutdi. Bayron va Nodirabegim ijodi o'z davrining ijtimoiy, madaniy va estetik muhitida ko'rib chiqilib, tabiat va muhabbat konseptlarining shakllanishiga ta'sir etgan omillar hisobga olindi. Mazkur metodologik yondashuvlar uyg'unligi Bayron va Nodirabegim she'riyatida tabiat va muhabbatning g'oyaviy-estetik mohiyatini tizimli va ilmiy asosda ochib berishga imkon yaratdi.[3]

Tadqiqot obyekti va predmeti. Mazkur tadqiqotning obyekti XIX asr ingliz romantik poeziyasi va o'zbek mumtoz-romantik lirikasining badiiy tizimi, xususan, Jorj Gordon Bayron va Nodirabegim ijodiy merosidir.

Tadqiqotning predmeti Bayron va Nodirabegim she'riyatida "tabiat" va "muhabbat" konseptlarining poetik ifodalanish shakllari, ularning semantik mazmuni hamda romantik dunyoqarashni shakllantirishdagi g'oyaviy-estetik vazifasidir.

Bayron ijodida tabiat va muhabbat konseptini aks ettiruvchi "Lok-na-Gar" va "Sevgining ilk bo'sasi" (Jumaniyoz Jabborov tarjimasi) she'rlari tarjimasida quyidagicha aks etgan:

Moda muxlislarin maskani gulgun,
Sokin, oromijon parka yo'q ixlos.
Qorli qoyalarni istar dil bugun,
Erk va muhabbatga o'sha joylar soz!
Kaledoniya tog'lari ko'ngilni tortar
Chaqmoq alangasin yondirib har yon.
Vahshiy sharsharalar bo'kirib yotar,
Shaddod Lok-na-Garga fido tan-u jon![4] (Jumaniyoz Jabborov)

Ushbu she'riy parcha Bayronning "Chayld Harold ziyorati" dostonidagi mashhur "Lok-na-Gar" she'ridan olingan bo'lib, ushbu asar romantizm poetikasiga xos tarzda tabiatni inson ruhiyati bilan uzviy bog'langan kuch sifatida talqin qiladi. Tog'lar, chaqmoq va sharsharalar tasviri tabiatning dinamik, qudratli va "sublim" mohiyatini ochib beradi, ya'ni, u hayrat uyg'otadi, insonni larzaga soladi va ichki dunyoni uyg'otadi. Tabiat bu yerda fon emas, balki faol, ta'sir ko'rsatuvchi kuchdir. "Vahshiy sharsharalar" va tog'lar

[1] To'xtasin Jalolov. O'zbek shoiralari. T., 1970.
[2] Mahbuba Qodirova. Davr Nodirasi (Nodiraning hayoti va ijod yo'li). Toshkent, "Fan", 1991.
[3] Naim Karimov. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, "O'qituvchi", 2015.
[4] Bayron. Saylanma, she'rlar, dostonlar. T., 1974.

obrazi orqali Bayron tabiatni madaniyatdan xoli, erkin va ibtidoiy qudrat sifatida ko‘rsatadi. Bu romantik qarashga ko‘ra, haqiqiy go‘zallik va haqiqat inson aralashmagan makonlarda, tog‘lar va qoyalar bag‘rida mavjud. Lok-na-Gar shoir uchun shunchaki geografik joy emas, balki ruhiy uyg‘onish maydonidir. Tabiat tasviri bilan birga erk va muhabbat tushunchalarining paydo bo‘lishi bevosita bog‘liq. Tog‘larning cheksizligi va sharsharalarning shiddati inson qalbidagi erkinlik va ehtirosni ramziy tarzda ifodalaydi. Shunday qilib, Bayron tabiatni axloqiy-psixologik model sifatida ishlatadi, tabiat qanchalik erkin bo‘lsa, inson ruhi ham shunday bo‘lishi kerakligi tasvirlanadi.

Yo‘qol, ey jimjimador, adabiy inja so‘zlar,
Tarqal yolg‘on-u yashiq, g‘iybatlarning to‘dasi.
Nurin sochib maftunkor nafis-u shahlo ko‘zlar,
Sarxush etadi meni sevgining ilk bo‘sasi.

Xayol-u tasavvurga asir qofiyabozlar,
Yetar chuchmal tuyg‘ular va ohanglar nag‘masi.
Sovuq sonetlaringiz – bachkana ehtiroslar,
Sizga tanishas jonbaxsh sevgining ilk bo‘sasi.[1] (Jumaniyoz Jabborov)

“Sevgining ilk bo‘sasi” she’ridan olingan ushbu parcha Jorj Gordon Bayron lirikasidagi sevgi poetikasining eng nozik va psixologik qatlamini ifodalaydi. Unda sevgi “ilk bo‘sa” timsoli orqali nafaqat jismoniy yaqinlik, balki ruhiy uyg‘onish va estetik mastlik sifatida talqin qilinadi. She’rning asosiy obrazlari “jimjimador, adabiy inja so‘zlar”, “maftunkor nafisu shahlo ko‘zlar”, “hayol tasavvurga asir qofiyabozlar” sevgi paytida idrokning o‘zgargan holatini ko‘rsatadi. Inson real dunyoni emas, balki go‘zallik bilan ideallashtirilgan ichki manzarani ko‘ra boshlaydi. Shu tariqa, sevgi idrokni poetiklashtiruvchi kuchga aylanadi. Shu tariqa, Bayron ijodida muhabbat estetik mastlik, ruhiy portlash va shaxsiy erkinlik bilan uzviy bog‘langan konseptdir. U insonni odatiy axloqiy va ijtimoiy me’yorlardan chiqarib, uni o‘zining ichki haqiqatiga yaqinlashtiradi. “Ilk bo‘sa” obrazi orqali Bayron sevgi inson mavjudligining eng intensiv, eng ijodiy va eng ozod holatini ifodalaydi.

Nodirabegim ijodida tabiat va muhabbat konsepti. Nodirabegim ijodida tabiat va muhabbat konseptlari Sharq mumtoz-romantik an’analari asosida shakllangan bo‘lib, ular lirik subyektning ma’naviy kamoloti va ilohiy uyg‘unligini aks ettiradi. Shoira ishqni nafaqat shaxsiy his-tuyg‘ular sifatida, balki ruhiy yuksalish va inson komilligi yo‘li sifatida talqin qiladi.[2]

Gul yuzingda ochildi bahor, ey yor,
Ko‘nglim sening hijrongda bir bemor…[3]

Bu misralarda “bahor” tabiat faslini sevgi va go‘zallik ramzi sifatida ishlatilgan. Bahorning gullari sevgining uyg‘onishi va yuzda ochilgan go‘zallik bilan bog‘lanadi, bu esa lirik qahramonning ichki holatini tabiat tasviri orqali ifodalaydi.

Farhod agar ursa menga lofi muhabbat,
Bir oh ila aylarman uni dog‘i xijolat.

Harchandki bemori g‘ami ishq edi Majnun,
Dardimni ko‘rib tishladi angishti nadomat.[4]

Bu parcha asosida Nodira ijodida muhabbat konsepti romantik va tragik ohangda talqin qilinadi. Ushbu misralarda muhabbat nafaqat shaxsiy hissiy tajriba, balki inson ruhini sinovdan o‘tkazuvchi kuch sifatida tasvirlangan. Misralarda sevgi shiddatli, kuchli va ixlos bilan bog‘liq hodisa sifatida ochiladi: “Farhod agar ursa menga lofi muhabbat, Bir oh ila aylarman uni dog‘i xijolat.” satrlari sevgi holatining insonni kuch bilan egallashini va uni tashqi voqealarga reaktiv harakatga chorlayotganini bildiradi. Bu yerda sevgi shaxsning ichki dunyosini tashqi olam bilan bog‘laydigan motivatsion kuch sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, misralarda muhabbat azob va qayg‘u bilan uyg‘unlashgan: “Harchandki, bemori g‘ami ishq edi Majnun, Dardimni ko‘rib tishladi angishti nadomat” satrlari sevgi faqat quvonch emas, balki insonni chuqur ruhiy iztirobga soluvchi hodisa ekanini ko‘rsatadi. Nodira muhabbatni romantik tragizm va insoniy kamolot bilan bog‘lab tasvirlaydi, sevgi shaxsni faqat his-tuyg‘ular darajasida emas, balki axloqiy va psixologik tajriba orqali ham shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda, Nodira muhabbat konseptini shaxsiy hissiyot, azob va iroda bilan uzviy bog‘langan murakkab fenomen sifatida talqin qiladi. Sevgi uning ijodida

[1] Bayron. Saylanma, she’rlar, dostonlar. T., 1974
[2] Rahmonov D. Qo‘qon adabiy muhiti va ayol shoiralar ijodi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2015.
[3] Nodira. Devon. Toshkent, “Fan”, 1992.
[4] Shu manba.

nafaqat romantik ehtiros, balki inson ruhining kamolotiga olib boruvchi, shaxsni sinovdan o‘tkazuvchi va ichki kuchlarini uyg‘otuvchi asosiy badiiy mavzu hisoblanadi.

Qiyosiy tahlil. Bayron va Nodirabegim she’riyatida tabiat va muhabbat konseptlari uzviy bog‘langan bo‘lsa-da, ularni talqin qilish uslubi va g‘oyaviy-estetik funksiyasi jihatidan farq qiladi. Bayronning romantik poetikasida tabiat – Lok-na-Gar tog‘lari, sharsharalar va chaqmoqlar orqali inson ruhining ehtirosi va erkinlik intilishlarini ramziy tarzda namoyon qiluvchi sublim qudrat (estetik ulug‘vorlikning eng yuqori darajasi) sifatida tasvirlanadi. Tabiat va muhabbat Bayron uchun inson idrokini kengaytiruvchi va ichki dunyoni uyg‘otuvchi kuch bo‘lib, romantik tragizm va insoniy iztirob bilan uyg‘unlashadi. Shunga qaramay, Nodirabegim g‘azallarida tabiat muhabbatni aks ettiruvchi estetik va lirizm vositasi sifatida ishlatiladi. Bahor, gullar va osmon elementlari lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini ochib beruvchi ramzlar bo‘lib, muhabbat insonning ichki kechinmalari, ehtiros va iroda bilan bog‘langan shaxsiy tajriba sifatida tasvirlanadi. Nodira ijodida tabiat tasviri Bayronnikiga nisbatan nozikroq, psixologik va lirik ohangga ega, biroq muhabbat konsepti inson ruhining kamoloti va ichki o‘sishini aks ettiruvchi kuch sifatida o‘xshash funksiyani bajaradi. Shunday qilib, ingliz va o‘zbek romantik poetikasida tabiat va muhabbat konseptlari umumiy g‘oyaviy-estetik asosga ega bo‘lsa-da, Bayron romantik tragizm va sublim qudratga urg‘u bersa, Nodirabegim lirik noziklik va psixologik uyg‘unlikni ta’kidlaydi. Ikkala ijodkor uchun ham tabiat muhabbatning ichki, ruhiy va estetik jarayonini ochib beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz romantik poetic tilida Bayron va o‘zbek romantik poetikasida Nodirabegim ijodida tabiat va muhabbat konseptlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan estetik va g‘oyaviy funksiyaga ega ekanligi aniq ko‘rinadi. Bayron she’riyatida tabiat – inson ruhiy holatini aks ettiruvchi, erkinlik va ehtirosni uyg‘otuvchi qudratli kuch sifatida tasvirlanadi. Lok-na-Gar tog‘lari, sharsharalar va chaqmoqlar obrazlari inson qalbidagi ehtiros va erkinlik intilishlarini ramziy tarzda namoyon etadi, muhabbat esa bu tabiat qudrati bilan uyg‘unlashib, shaxsiy ichki dunyoni kengaytiruvchi ruhiy portlash sifatida ifodalanadi. Shu bilan birga, Nodirabegim g‘azallarida tabiat tasviri va muhabbat konsepti o‘zbek romantik an’analariga xos nozik, lirik va psixologik tusda talqin etiladi. Bahor, gullar, osmon va boshqa tabiat elementlari muhabbatning uyg‘onishi, go‘zallik va ichki kechinmalarni aks ettiruvchi ramz sifatida ishlatiladi. Nodira muhabbatni shaxsiy iztirob, ehtiros va iroda bilan bog‘lab, uni inson ruhining kamoloti va ichki o‘sishini rag‘batlantiruvchi kuch sifatida ko‘rsatadi. Natijada Bayron va Nodirabegim she’riyatida tabiat va muhabbat konseptlari nafaqat badiiy manzara va hissiy holatni ifodalash vositasi, balki insonning ruhiy, estetik va axloqiy tajribasini anglash uchun g‘oyaviy-estetik asos sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, ingliz va o‘zbek romantik poetikasida tabiat va muhabbat uyg‘unligi universal poetik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ulug‘bek Hamdamov, Abdug‘opir Qosimov. Jahon adabiyoti. Toshkent, “Akademnashr”, 2024.

(2). Yorqinoy Hamroyeva. O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2007.

(3). Jerome McGann. Byron and the poetics of Adversity. Cambridge University Press, 2022.

(4). Rahmonov D. Qo‘qon adabiy muhiti va ayol shoiralar ijodi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2015.

(5). To‘xtasin Jalolov. O‘zbek shoiralari. T., 1970.

(6). Mahbuba Qodirova. Davr Nodirasi (Nodiraning hayoti va ijod yo‘li). Toshkent, “Fan”, 1991.

(7). Naim Karimov. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2015.

(8). Bayron. Saylanma, she’rlar, dostonlar. T., 1974.

(9). Rahmonov D. Qo‘qon adabiy muhiti va ayol shoiralar ijodi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2015.

(10). Nodira Devon. “Toshkent”, “Fan”, 1992.

Muxammedova Xulkar Eliboyevna (O‘zDJTU professori v.b., filologiya fanari doktori;
E-mail: xulkarmuxammedova@uzswlu.uz)

SYUZEN HILL IJODIDA GOTIK ROMAN XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada taniqli ingliz yozuvchisi Syuzen Xillning gotik roman janridagi mahorati, asarlarining o‘ziga xos badiiy xususiyatlari va an’anaviy gotika unsurlarining zamonaviy adabiyotga tatbiqi tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida muallifning muhitni yaratish, qo‘rquv psixologiyasini ochish va makon obrazidan foydalanish mahorati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *gotik, ingliz, roman, adiba, uslub, tasvir.*

Мухаммедова Хулкар Элибоевна (УзГУМЯ, доктор филологических наук;
E-mail: xulkarmuxammedova@uzswlu.uz)

ОСОБЕННОСТИ ГОТИЧЕСКОГО РОМАНА В ТВОРЧЕСТВЕ СЬЮЗЕН ХИЛЛ

Аннотация. *В данной статье анализируется мастерство известной английской писательницы Сьюзен Хилл в жанре готического романа, рассматриваются своеобразные художественные*